

Axmadvov AmonkeldiBuxoro davlat universiteti dotsenti,
tarix va filologiya fanlari doktori (DSc)**Ziyodulloyeva Parvina**Buxoro davlat universiteti
talabasi

53

IKKI QUTBLI DUNYODA GERMAN DAVLATLARINING TAQDIRI (1945–1990 YY.)

Annotatsiya. Maqolada Ikkinchi jahon urushidan so'ng Potsdam konfrensiyasining xulosasiga ko'ra Germaniyaning to'rt okkupatsiya zonasiga bo'linishi, uning natijasida ikki mustaqil davlat – Germaniya Federativ Respublikasi (g'arbiy Germaniya) va Germaniya Demokratik Respublikasi (sharqiy Germaniya) ning vujudga kelishi, ushbu ikki davlat o'rtasidagi ideologik, siyosiy va iqtisodiy tafovutlar asosida keskin qarama-qarshiliklar yuzaga kelganligi yoritiladi. Germaniya Federativ Respublikasining 1945-1990-yillar oralig'idagi geosiyosiy holati, ikki qutbli dunyo tizimidagi o'rni va global miqyosidagi ta'siri tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor Germaniyaning geosiyosiy holati, xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlari, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlariga qaratilgan. Maqola zamonaviy dolzarb yondashuv asosida yozilgan bo'lib, Germaniyaning XX asr ikkinchi yarmidagi global siyosiy muhitdagi o'rnini yoritadi

Kalit so'zlar: Sovuq urush, SSSR, AQSH, GFR, GDR, NATO, Varshava shartnomasi, Berlin devori, Marshall rejasi.

СУДЬБА ГЕРМАНСКИХ ГОСУДАРСТВ В БИПОЛЯРНОМ МИРЕ (1945-1990.)

Аннотация. В статье освещается разделение Германии на четыре оккупационные зоны согласно решению Потсдамской конференции после Второй мировой войны, в результате которого возникли два независимых государства - Федеративная Республика Германия (Западная Германия) и Германская Демократическая Республика (Восточная Германия), а также острые противоречия между этими двумя государствами, основанные на идеологических, политических и экономических различиях. Анализируется геополитическое положение Федеративной Республики Германия в период 1945-1990 годов, ее место в биполярной системе мира и влияние на глобальном уровне. Основное внимание уделяется геополитическому положению Германии, ее отношениям с международными организациями, экономическим и социальным изменениям. Статья написана на основе современного актуального подхода и освещает роль Германии во второй половине XX века в глобальной политической среде.

Ключевые слова: Холодная война, СССР, США, ФРГ, ГДР, НАТО, Варшавский договор, Берлинская стена, План Маршалла.

THE FATE OF THE GERMAN STATES IN THE BIPOLAR WORLD (1945-1990.)

Abstract. This article examines the division of Germany into four occupation zones following the Potsdam Conference after World War II, which resulted in the emergence of two independent states - the Federal Republic of Germany (West Germany) and the German Democratic Republic (East Germany). It highlights the sharp contradictions that arose between these two states due to ideological, political, and economic differences. The geopolitical situation of the Federal Republic of Germany from 1945 to 1990, its position in the bipolar world system, and its global influence are analyzed. The main focus is on Germany's geopolitical status, relationships with international organizations, and economic and social transformations. The article adopts a contemporary and relevant approach, illuminating Germany's role in the global political landscape of the second half of the 20th century.

Keywords: Cold War, USSR, USA, FRG, GDR, NATO, Warsaw Pact, Berlin Wall, Marshall Plan.

Kirish. 1945-yil 8-may Germaniya harbiy qo'mondanligining so'zsiz taslim bo'lgan kun, 9-may Germaniya ustidan erishilgan tarixiy g'alaba kuni. Germaniyaning 1945-yilda g'olib davlatlar tomonidan bo'linishi, Yevropadagi geosiyosiy muvozanatni o'zgartirdi va uni global qarama-qarshilik markaziga aylantirdi. Sovuq urush sharoitida mamlakat ikki ijtimoiy-siyosiy tizim doirasida shakllandi. Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) G'arb blogi tarkibida bozor iqtisodiyoti va xalqaro hamkorligi

asosida rivojlanga bo'lsa, Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR) Sovet Ittifoqi yetakchiligidagi kommunizm g'oyasi asosida harakatlandi. 1955-yilda GFR NATOga, GDR esa Varshava shartnomasiga qo'shildi. Berlin devorining qurilishi (1961) aholining erkin harakatlanishini cheklash bilan birga, iqtisodiy resurslar oqimini nazorat qilish va davlatlararo farqlarni saqlab qolish vositasiga aylandi. Sovuq urush sharoitida Germaniyaning geosiyosiy pozitsiyasi xalqaro strategik manfaatlar doirasida belgilandi. GFR G'arbiy Yevropa iqtisodiy mo'jizasi jarayonida iqtisodiyotni liberallashtirish va industrial rivojlanish modeliga asoslangan siyosat yuritdi. GDR esa davlat rejalashtirilgan iqtisodiyotni targ'ib qildi, biroq iqtisodiy samaradorlik va aholi turmush darajasi bo'yicha GFR bilan raqobatbardoshlikni saqlab qola olmadi. 1980-yillarning oxirida jahonda ro'y bergan geosiyosiy o'zgarishlar, jumladan Sovet Ittifoqida amalga oshirilgan siyosiy-iqtisodiy islohotlar Germaniyaning birlashishi uchun sharoit yaratdi. 1989-yilda Berlin devorining qulashidan so'ng ikki davlat o'rtasidagi diplomatik muloqot faollashdi va 1990-yilda Germaniya qayta birlashtirildi.

Muhokama va tahlillar. 1945-yil may oyida Adolf Gitler qo'shinlari mag'lubiyatga uchraganida, Germaniya uchun aniq kelajak yo'q edi. Mamalakat vayron bo'ldi oziq-ovqat yoqilg'i va uy-joy tanqisligi oqibatida ko'plab odamlar halok bo'ldi. G'olib ittifoqchilar Germaniyaning bo'lib olish to'g'risida kelishuvni ishlab chiqdilar. Nemislar ozod qilingan davlat emas, mag'lub bo'lgan xalq edi. Ittifoqchilar nemislarni ular tomonidan va ularning nomidan sodir etilgan dahshatli jinoyatlar uchun tovon to'lashga majbur qilishlari kerakligi to'g'risida kelishib oldilar. [1;4.bet].


1945-yil 17-iyul va 2-avgustda bo'lib o'tgan Potsdam konfrensiyasi Germaniyaning to'la qurolsizlantirish hamda demilitarizatsiya va denifikatsiya qilish, to'g'risida qarorlar qabul qilindi. Germaniyaga iqtisodiy birlik sifatida qaralib sanoati nazorat ostiga olindi. Germaniya turmush darajasi qo'shniklaridan past bo'lishi kerakligi to'g'risida kelishib olindi.[2;5-6. bet]

Potsdam konfrensiyasi qarorlari Germaniya iqtisodiyotidagi monopolistik tizimlarni yo'q qilish, natsizm tarafdorlarini mulkidan va siyosiy hayotga ta'sir o'tkazish imkoniyatidan mahrum etish ko'zga tutilgan edi. 1945-yildayoq Nazorat kengashi IG Farbindustri konsernning mulkini konfiskatsiya qilish to'g'risida kelishib olindi. Eng yirik banklar, to'g'-kon sanoati 10 mingdan ziyod ishchiga ega bo'lgan konsernlar, shuningdek, Kurpp, Flick, Ryoxling va natsislar rejimi bilan yaqin aloqada bo'lgan boshqa magnatlarning korxonalari dekartelizatsiya qilinishi lozim edi. [3;180 b]

G'olib davlatlar 1947-1949-yillarda Germaniyaning iqtisodiy, so'ngra siyosiy bo'lib yubordilar. 1947-1948-yillarda g'arbiy zonalarining iqtisodiy jihatdan birlashtirilishi, Rurning iqtisodiy alohida zonaga aylantirilishi, valyuta reformasining o'tkazilishi Germaniyaning iqtisodiy jihatdan bo'linishiga olib keldi. Siyosiy jihatdan ham bo'lib yuborish tezlashdi.[4;295 b].

1945-1949-yillarda har bir davlat o'z zonasida siyosiy tuzum o'rnatdi. 1949-yil may oyida AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya zonalaridan G'arbiy Germaniya (GFR), 1949-yil oktabrda esa Sovet Ittifoqi zonasida Sharqiy Germaniya (GDR) davlatlari tashkil qilindi. GFR g'arb davlatlarining demokratiya va kapitalizm yo'lini tanladi. Sovet ittifoqi tasiridagi GDR kommunistik boshqaruvni joriy etdi. Bu farqlar Sovuq urushning zo'rayishiga, Germaniyaning 40 yilga yaqin ikkiga bo'linib qolishiga sabab bo'ldi. Sovuq urush sharoitida Germaniya harbiy-siyosiy va iqtisodiy qarama-qarshilik markaziga aylandi. GFR iqtisodiy modernizatsiya va Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining ko'magi natijasida tezkor rivojlanishga erishdi. Marshall rejasi doirasida iqtisodiy yordam GFRga sanoat ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini berdi. GDR esa rejalashtirilgan iqtisodiy modelni joriy etgan bo'lsa-da, sanoat o'sish sur'atlari sustligi va resurs tanqisligi sababli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlay olmadi. 1961-yilda GDR hukumati tomonidan qurilgan Berlin devori Sharqiy Germaniyadan G'arbiy Germaniyaga ommaviy migratsiyani to'xtatish vositasi sifatida talqin etilgan. Biroq, bu devor ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ikki Germaniya o'rtasidagi tafovutni chuqurlashtirdi, GDRning iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini cheklab qo'ydi.

G'arbiy Germaniya (GFR) bozor iqtisodiyoti va xalqaro integratsiya orqali tez rivojlandi. Masalan, Germaniyaning yetakchi avtomobil ishlab chiqaruvchilari Volkswagen, Mercedes-Benz va BMW xalqaro bozorda yetakchilikni ola boshladi. 1960-yillarga kelib, GFR dunyodagi eng yirik avtomobil eksportchilaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, BASF, Bayer va Siemens kabi sanoat gigantlari kimyo, farmatsevtika va elektronika sohalarida G'arbiy Yevropa iqtisodiy o'sishining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.



Sharqiy Germaniya (GDR) esa markazdan rejalashtirilgan iqtisodiyotga asoslanib, og'ir sanoat va davlat korxonalarini rivojlantirishga harakat qildi. Misol uchun, Trabant avtomobillari GDR sanoatining mahsuloti sifatida ishlab chiqarilgan bo'lsa-da, sifati va texnologik jihatdan G'arbiy Germaniya avtomobillaridan ancha orqada edi. Robotron nomi bilan tanilgan GDRning elektronika korxonalari kompyuter va hisoblash texnikasi ishlab chiqargan, ammo mahsulotlari G'arb raqobatchilari - IBM yoki Siemens bilan taqqoslaganda mahsulotlar sifati ancha past darajada edi.

Sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarishidagi farqlar aholining hayot tarziga ta'sir qilgan. G'arbiy Germaniyada bozor iqtisodiyoti rivojlangan bo'lib, aholining kundalik ehtiyojlari, jumladan oziq-ovqat, maishiy texnika va boshqa mahsulotlarga bo'lgan talab erkin qondirilgan. Sharqiy Germaniyada bozor iqtisodiyoti sust rivojlangan bo'lib, doimiy taqchillik kuzatilgan. Fuqarolar kundalik tovarlar uchun ham uzun navbatlarda turishga majbur bo'lishgan.

Ammo XX asrning 80-yillarida ikki davlat o'rtasida yangi sahifalar ochildi. GDR dagi rasmiy targ'ibotlarda umumgerman masalasi yana kun tartibiga chiqdi. Umumiy madaniy meros to'g'rida so'zlar tez-tez qo'llanila boshlandi. Erich Honeckerning GFR da demokratik kuchlar g'alabasidan keyin Germaniyaning birlashishi masalasi to'g'risidagi bayonoti shov-shuvga sabab bo'ldi. Sharqiy Germaniya rahbariyatining yangi yo'li Bonnda qo'llab quvvatlandi. G.Kol hukumati GDR ni iqtisodiy jihatdan qo'llab quvvatlash uchun choralar ko'rildi. 1983-1984 yillarda umumiy qiymati 1,9 mlrd markadan iborat kredit berish bo'yicha shartnoma tuzuldi. 1987-yil ilk bora GDR rahbari Bonnga tashrif buyurdi. GDRning 40 yilligini nishonlash kunlari yaqinlashib kelmoqda edi.[5;230 b].

Germaniyaning birlashtirishning xalqaro huquqiy yechimi 2+4 shaklidagi AQSH, SSSR, Buyuk Britaniya, Fransiya muzokaralarida o'z yechimini topishi kerak edi. Bu muzokaralar 1990-May oyida boshlandi. Bunda SSSR Prezidenti Garbachovning birlashgan Germaniya rahbariyatiga mamlakatning harbiy va iqtisodiy bloklarga kirish masalasini o'z ixtiyoriga berish va GDRdan sovet qo'shinlarini chiqib ketilishi muhim rol o'ynadi. Umuman M.S. Garbachov GDR ning GFRga qo'shilinishiga rozi ekanligini G.Kolga 1990-yilning 10- fevralidayoq ma'lum qilgan edi. 1990-yil 12-sentabrda 2+4 ishtirokchilari tomonidan Germaniya masalasi uzul-kesil hal etish to'g'risida shartnoma imzolandi. Shartnomada Germaniyaning urushdan keyingi chegaralari daxlsizligi kafolatlanishi va Germaniya qurolli kuchlarini kerakli darajada qisqartirish masalasi ko'rildi. 1990-yilning may oyida GFR va GDR hukumatlari tomonidan 1-iyulda ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy valyuta va ijtimoiy ittifoqi to'g'risida shartnoma imzolandi.[6;231-232 b].

Germaniyaning 1990-yildagi birlashuvi shunchaki ikki davlatning qo'shilishi emas edi. Bu XX asrning eng chuqur siyosiy metaforalaridan birining yechimi bo'ldi.

Ko'rsatkichlar	G'arbiy Germaniya (GFR)	Sharqiy Germaniya (GDR)
Yetakchi sanoat tarmoqlari	Avtomobilsozlik (Volkswagen, BMW), Kimyo (BASF), Elektronika (Siemens)	Og'ir sanoat (Trabant, Robotron)
Kundalik mahsulotlar	Savdo do'konlari to'la, turli mahsulotlar mavjud	Doimiy taqchillik, uzoq navbatlar
Migratsiya tendensiyasi	G'arbiy Yevropadan ishchi kuchi jalb etilgan	Aholi G'arbg ko'chishga harakat qilgan
Harbiy ittifoq	NATO tarkibida	Varshava shartnomasi tarkibida
Harbiy bazalar	Ramstein aviabazasi	Sovet armiyasining Eberswaldedagi raketa bazasi

Xulosa. Germaniya taqdiri ikki qutubli dunyoning markazida joylashgan nemis xalqining sinovi bo'ldi. 1945-yil g'oyaviy qarama-qarshiliklar natijasida ikki davlatga bo'lindi. G'arbiy Germaniya bozor iqtisodiyoti va xalqaro hamkorlik asosida rivojlangan bo'lsa, Sharqiy Germaniya rejalashtirilgan iqtisodiyot tufayli iqtisodiy qo'liqlardan qutulolmadi. Bu bo'linish nafaqat siyosiy va iqtisodiy tizimlarni ajratdi, balki ikki nemis xalqining ongida hayot tarzida qadriyatlarida ham chuqur tafovutlar paydo bo'lishiga olib keldi. Sharqda senzura cheklov va izolyatsiya hukm surar, G'arbda esa erkinlik, taraqqiyot, global integratsiya avj olar edi. Shu tariqa bir millat, ikki taqdir, ikki yo'nalish bilan yashashga majbur bo'ldi. 1990-yilda ikki Germaniyaning birlashuvi ikki qutubli qarama-qarshiliklar yakuniga aylandi. Shunga qaramay Germaniya bu tarixiy birlashuv butun dunyoga muhim haqiqatni eslatdi, devorlar odamlarni ajratishi mumkin, ammo millatni bo'la olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nuriddinov Z. R. G'arb mamlakatlarning eng yangi tarixi (1939-1971)- Toshkent, 1976. -523 bet
2. Pól O'Dochartaigh. Germany since 1945. – Palgrave Macmillan, 2004. 299 b.
3. Kichkilov H, Fayzulloyeva M. Eng yangi tarix (1945-2010-yillar). – Toshkent, 2011. 520 b.
4. Jurgen Weber. Germany, 1945-1990: A Parallel History. Central European University Pr. 2004. 289 p.
5. Axmatov A. (Akhmatov A) XX asr 50-70 yillarida Buxoro adabiy muhiti tarixi. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. Volume 2, Impact Factor:5.947 ASI Factor = 1.7. April 2022. – B.399-403.
6. Axmatov A. O'zbekiston SSSR yozuvchilar uyushmasining Mustaqillik arafasidagi faoliyati (Buxoro bo'limi misolida). Pedagogik akmeologiya. (1)2024. – B.7-10.